



SARATON KASALLIGI VA UNI DAVOLASHDA ANTIOKSIDANTLARNING O'RNI.

Bahriddinova D.B

*Samarqand Davlat tibbiyot universiteti 1-son davolash fakulteti
202-guruh talabasi.*

Xolmurodova D. Q

Kiyamova D.Sh

Samarqand Davlat tibbiyot universiteti tibbiy kimyo kafedrası

Annotatsiyasi: *Saraton (rak)- bu tanadagi ichki to'qimalardan o'sadigan yomon sifatli o'sma (shish). Kasallikning bunday deyilishiga sabab, 90% holatlarida bemorlarda yomon sifatli o'smalar ya'ni qisqichbaqa qisqichiga o'xshaydi. Saraton kasalligining erta va so'ngi bosqichlari mavjud. Antioksidantlar oksidlovchi, stresni bostiradigan va erkin radikallarga qarshi kurashadigan moddalardir. Saraton kasalligining kelib chiqish sabablaridan biri aynan shu xavfli radikal moddalar tufayli hujayralarda paydo bo'ladigan patalogik o'zgarishlar tufaylidir.*

Saraton bu- onkologik kasallik bo'lib, u organizimda paydo bo'ladigan o'smadir. Bu kasallik butun dunyoda asosiy o'lim sabablaridan biridir. Saraton kasalligining kelib chiqish sabablaridan biri bu radikal moddalardir. Radikal modda -inson tanasida kislorod bilan kimyoviy reaksiyalar paytida paydo bo'lgan qattiq, suyuq va gazsimon holdagi molekulalardir. Saraton kasalligini davolashda oksidlovchi antioksidantlardan foydalaniladi. Antioksidantlar-organizmdagi zararli moddalarga qarshi kurashuvchi biologik oksidlovchilardir. Ushbu moddalar inson hayotida juda muhim. Sababi, ular oziq ovqat va kosmetikalarning sifat kafolati hisoblanadi. Antioksidantlar hujayra membranalaridan o'tib, ozuqa moddalarni olib yurishi, metabolizmni rag'batlantirishi va immunitetni shakllantirishi mumkin.

Saraton bu -onkologik kasallik bo'lib, u organizimda paydo bo'ladigan o'smadir. Bu kasallik dunyoda asosiy o'lim sabablaridan biridir. Saraton kasalligi tanadagi ichki to'qimalardan o'sadigan yomon sifatli o'smalar ya'ni qisqichbaqa qisqichiga o'xshaganligi uchun shunday nom olgan. Shifokorlar saraton oldi va erta bosqichlarida buni davolashda bir qancha tekshiruv ishlari amalga oshiriladi. Bular kompyuter tomografiyasi, MRT, PET-KT kiritilishi real vaqtda shikastlangan hujayralarning yakka to'plamlarini 2D va 3D vizualizatsiya qilish (saraton oldi bosqichlari uchun) imkonini beradi. Bu tekshirish ishlari saratonning dastlabki bosqichlarida amalga oshiriladi. Saraton kasalligining so'ngi bosqichida bu kasallikning oldini olish juda qiyin. Saraton kasalligining aniq kelib chiqish sababi aniqlanmagan. Bir qancha o'nlab ilmiy nuqtai nazarlar mavjud. Shularni birlashtiradigan bo'lsak, xavfli o'smalarning rivojlanishiga yordam beradigan 3ta asosiy omil mavjud. Bular fizik, kimyoviy va biologik omillardir. Saraton kasalligini davopashda antioksidantlardan foydalaniladi. Antioksidantlar organizmdagi zararli moddalarga qarshi kurashuvchi biologik oksidlovchilardir. Antioksidantlar stresni bostiradigan va erkin radikallarga qarshi kurashadigan moddalardir. Radikal moddalar inson tanasida kislorod bilan kimyoviy reaksiyalar paytida paydo bo'lgan qattiq, suyuq va gazsimon holdagi molekulalardir. Ular hujayra membranalaridan o'tib, ozuqa moddalarni olib yurishi, metabolizmni rag'batlantirishi va immunitetni shakllantirishi mumkin. Antioksidantlar xavfli radikalarga qarshi kurashadi. Antioksidantlar bir qancha mahsulotlar tarkibida bo'ladi. Bular sabzi,



lavlagi, karam, bulg'or qalampiri, ismaloq, qovoq, baqlajon, piyoz, sarisoq va yashil sabzavotlarda antioksidantlar ko'p bo'ladi. Shuningdek, malina, olxo'ri, qorag'at, sitrus, olcha, qovun, anor, uzum kabi meva va rezavorlar ham antioksidantlarga juda boy. Bundan tashqari, boom, xandon pista va funduk yong'oqlari ham organizm uchun foydalidir. Chunki ular antioksidant uchun zarur bo'lgan E vitaminiga juda boy. Antioksidantlar nafaqat radikallarga qarshi balki DNK ni ham qayta tiklashga yordam beradi. Ziravorlardan qalampirmunchoq, zarchava, dolchin va quritilgan petrushkada ham antioksidantlar mavjud.

Saraton kasalligining bosqichlari, uning kelib chiqish sabablari va tekshiruv usullarini o'rganish. Antioksidantlar tushunchasi va ularning inson organizmidagi ahamiyatini o'rganish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abu Ali ibn Sino. 'Tib qonunlari'.
2. F.E. Ergashova, Sh.Sh. Tilloyeva, D.B. Raxmatov. 'Ibn Sino Ta'limoti'.
3. Yusupova S. S., Kholmurodova D. K., Kiyamova D. S. Vexibia Alopecroides - How to New Source for the Synthesis of Physiologically Active Substances Used in Medicine // Global Scientific Review. – 2023. – T. 20. – C. 25-30.
4. Vexibia Alopecroides - How to New Source for the Synthesis of Physiologically Active Substances Used in Medicine. Global Scientific Review 2023 Volume 20, October 2023.
5. Выделение и установление строения физиологически активных препаратов из растения семейства fabaceae. Илмий ахборотнома 2022-йил, 3-сон (133) C76-80.
6. Холмуродова Д.К Пути и методы получения порфиринов. International Journal of Education, Social Science. Volume-11|22-10-2023
7. Yusupova S.S. Holmurodova D.K. Kiyamova D.Sh. A New Source Of Biologically Active Substances Used In The National Economy And Medicine The american journal of medical sciences and pharmaceutical research 2020
8. С.С Юсупова, Д.К Холмуродова Лечебные свойства флавоноидов Биотехнология и биомедицинская инженерия, 2022 стр 255-256